

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BOBOXO‘JAYEV BAXTIYOR NAZIRXO‘JAYEVICH

**TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA MAHSULOTLAR
ASSORTIMENTINING MARKETING BOSHQARUVI
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
экономических наук (DSc)**

Table of Contents of the Doctor of Economic Sciences (DSc)

Boboxo‘jayev Baxtiyor Nazirxo‘jayevich

To‘qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentining marketing
boshqaruvi metodologiyasini takomillashtirish..... 3

Бобохужаев Бахтиёр Назирхужаевич

Совершенствование методологии маркетингового управления
ассортиментом продукции на текстильных предприятиях 33

Bobokhujaev Bakhtiyor Nazirkhujaevich

Improving the methodology of marketing management of product
assortment in textile enterprises 67

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 75

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BOBOXO‘JAYEV BAXTIYOR NAZIRXO‘JAYEVICH

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA MAHSULOTLAR
ASSORTIMENTINING MARKETING BOSHQARUVI
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Iqt356 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Boltabayev Maxmud Rutamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Ikrom Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, Faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.K.Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.D.Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.A.Allayarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik sohasida qo‘shimcha qiymati past bo‘lgan ishlab chiqarish jahon to‘qimachilik sanoatida ustunlik qiladigan Xitoydan ishlab chiqarish xarajatlari past bo‘lgan boshqa iqtisodiyotlar hisoblangan Vetnam, Hindiston, Bangladesh va Efiopiya kabi mamlakatlarga ko‘chib o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Fitch Solutions ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyning jahon to‘qimachilik eksportidagi ulushi 2015 va 2024-yillar oralig‘ida 38,3 foizdan 29,1 foizga qisqargan. Ta’minot zanjiridagi uzilishlar, shuningdek, ba’zi Yevropa kompaniyalarini Xitoydan Turkiyaga va Sharqiy Yevropaga offshor to‘qimachilik ishlab chiqarishga jalb qilishga yuqori ahamiyat qaratmoqda.¹ Mazkur holatlar iste’molchilarning doimiy ravishda kiyim-kechak mahsulotlariga ehtiyojlarini qondirishda tikuv-trikotaj korxonalarida assortiment siyosati samaradorligini oshirishni talab qilmoqda.

Jahon to‘qimachilik bozorida talab tarkibida segmentlar ko‘payishi, moda sikllari qisqargan, ko‘p-kanalli tizimini shakllanishi, ESG va doiraviy iqtisodiyot tamoyillar bo‘yicha yuqori talablar belgilanishi, geoiqtisodiy xatarlar (logistika uzilishlari, tariflar, “nearshoring/reshoring”) tufayli to‘qimachilik korxonalarining assortimentni mintaqaviy lokallashtirish va tez qayta-konfiguratsiya qilish, tez moda (fast fashion) davrida ortiqcha zaxira/defitsitni samarali rejalashtirish, ko‘pkanalli assortimentni muvofiqlashtirish, sifat va sertifikatlash talablariga tezkor moslasha oladigan marketing strategiyalarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston Respublikasining yuqori lokomotiv sanoat tarmog‘i hisoblanib hududlarda yangi loyihalarni amalga oshirish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish, aholi bandligini ta’minlash va ish o‘rinlarini yaratish, soliq va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni to‘lashda yetakchilardan biri hisoblanadi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra to‘qimachilik sohasida 12 000 dan ziyod korxona faoliyat yuritib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenting 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida “To‘qimachilikda ip-kalavani qayta ishlash darajasini 62 foizga yetkazish” vazifalari belgilab berilgan. 2020-yildan keyingi davrlarda O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat tomonidan to‘qimachilik sanoatida ijtimoiy muhofaza, ijtimoiy tenglik va javobgarlik tamoyillariga mos ravishda rivojlanayotgan sanoat keng e’tirof etildi. Bu borada, Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro moliya korporatsiyasining O‘zbekistonda rasman Better Work dasturi o‘z faoliyatini boshladi. Shu bilan birgalikda global zanjirga kirish uchun paxta yetishtirishda shaffoflik va barqarorlikka asosan ish olib borish maqsadida Better Cotton tashabbusi 2023-yildan paxta-to‘qimachilik klasterlari bilan hamkorlik qilmoqda. Bu esa Disney, Nike, H&M, Zara kabi yirik brendlarga mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini bir necha barobarga oshirishga imkon yaratadi. Bu esa O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentining marketing boshqaruvi metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy

¹ <https://www.linkedin.com/pulse/how-global-economic-status-impact-textile-qnryc>

tadqiqot ishlarini jadallashtirish hamda mazkur yo‘nalishda innovatsion faoliyatni samarali joriy etishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-155-son hamda 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentyabrdagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 556-son qarori va sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni sotish bilan bog‘liq tadqiqotlar, tarmoq korxonalarida marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, marketing strategiyasini ishlab chiqish hamda ular yordamida global bozorlardagi iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, AQShning Massachusetts texnologiyalar instituti² (Massachusetts Institute of Technology), Kaliforniya texnologiyalar universiteti³ (California Institute of Technology), Rays universiteti⁴ (Rice University), Nyu-York universiteti (New York University) Garvard universiteti⁵ (Harvard University), Xitoyning Pekin texnologiyalar universiteti⁶ (Beijing Institute of Technology), Chunsin universiteti (Chongqing University), Dalyan texnologiyalar universiteti (Dalian University of Technology), Sharqiy Xitoy politexnika universiteti (East China University of Science and Technology), London universiteti (University of London); Xitoy fan va texnologiyalar universiteti, Bombey hind texnologiya instituti (Indian Institute of Technology Bombay), Hindiston ilmiy instituti (Indian Institute of Science), Dehlidagi hind texnologik instituti (Indian Institute of Technology Bombay), Sankt-Peterburg davlat

² American Apparel and Footwear Association. Apparelstats. 2021. Available online: <https://www.aafaglobal.org> (accessed on 26 April 2022).

³ Luján-Ornelas, C.; Güereca, L.P.; Franco-García, M.-L.; Heldeweg, M. A life cycle thinking approach to analyse sustainability in the textile industry: A literature review. Sustainability 2020, 12, 10193.

⁴ U.S. Environmental Protection Agency. Advancing Sustainable Materials Management: 2018 Fact Sheet. Available online: https://www.epa.gov/sites/default/files/2021-1/documents/2018_ff_fact_sheet_dec_2020_fnl_508.pdf (accessed on 26 April 2022).

⁵ Sandin, G.; Peters, G.M. Environmental impact of textile reuse and recycling-A review. J. Clean. Prod. 2018, 184, 353–365.

⁶ Johnson, S.; Echeverria, D.; Venditti, R.; Jameel, H.; Yao, Y. Supply chain of waste cotton recycling and reuse: A review. AATCC J. Res. 2020, 7, 19–29.

iqtisodiyot va moliya universiteti (Rossiya), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Farg'ona davlat universiteti hamda Urganch davlat universitetlarida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda to'qimachilik sanoatida mahsulotlar assortimentini samarali boshqarish, o'rta va uzoq muddatli marketing strategiyalarini ishlab chiqish, ular orqali milliy, mintaqaviy hamda jahon bozorlaridagi tendensiyalarni tahlil qilish va prognozlash masalalari bo'yicha xalqaro darajada qator ilmiy yutuqlar qo'lga kiritilgan. Jumladan: mintaqaviy bozorlar barqarorligini ta'minlash va ularni optimal tartibga solish usullari ishlab chiqilgan (The University of Michigan, AQSH); jahon bozorida to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab o'zgarishining demografik jarayonlar bilan bog'liqligi modeli yaratilgan (Beijing Institute of Technology, Xitoy); yangi mahsulotlarni bozorga olib kirish va bozorlarda faoliyatni kengaytirishga qaratilgan strategiyalarning ahamiyati asoslab berilgan (Indian Institute of Management, Hindiston); korxonalarning marketing faoliyatini raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan innovatsion vositalar ishlab chiqilgan (Harvard University, AQSH); sanoat marketingi va B2B bozoriga xos bo'lgan marketing menejmentining ilmiy-nazariy asoslari o'rganilgan (Cambridge University, Buyuk Britaniya); milliy iqtisodiyot rivojlanishida to'qimachilik sanoatining o'rni va ahamiyati ekonometrik modellar asosida baholangan (Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot va moliya universiteti, Rossiya). Shu bilan birga, jahonda geosiyosiy vaziyat, iqlim o'zgarishlari va xalqaro logistikaning to'qimachilik sanoati taraqqiyotiga ta'siri, bozorlardagi talab va taklif o'zgarishi bilan bog'liq qator ustuvor yo'nalishlar ham keng o'rganilmoqda.

Jahon to'qimachilik sanoatida assortimentni boshqarish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar asosan raqamli transformatsiya, talab prognozi va barqaror iste'mol tamoyillariga tayanmoqda. Yetakchi ilmiy markazlar mahsulot assortimentini optimallashtirishda sun'iy intellekt, Big Data, real-time analytics texnologiyalarining qo'llanilishini chuqur o'rganmoqda. Yevropa Ittifoqida "Smart Textile Supply Chain" loyihalari doirasida korxonalarda moslashuvchan ishlab chiqarish (flexible manufacturing) hamda on-demand assortment management tizimlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSh va Janubiy Koreya ilmiy institutlari assortiment siyosatini takomillashtirishda iste'molchi xulq-atvorining mikrosegmentatsiyasi, ommaviy personalizatsiya, va yashil assortiment strategiyasining samaradorligini tahlil qilmoqda. Turkiya, Bangladesh va Vyetnamda esa assortimentni boshqarishda yetkazib berish zanjiri barqarorligi, omnichannel marketing, va tezkor assortiment yangilanishi (rapid assortment refresh cycle) ustuvor yo'nalish sifatida rivojlanmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Marketingda tovar assortimenti siyosati, assortimentni boshqarish, strategik tartibga solish muammolari xorijlik olimlardan D.Abell, F.Kotler, G.Armstrong, M.Porter, D.Aaker, K.Keller, R.Larson, J.Kapferer, A.Tompson, K.Lavlok, D.Kreyvens, D.Roberts, Makkovern,

I.Ansoff, R.Bazzel, N.Kapustina, R.Kuns, B.Karlof, A.Ouen, Ya.Kornay va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan⁷.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan G.L.Bagiyev, V.M.Tarasevich, X.Ann, I.K.Belyayevskiy, A.M.Godin, Ye.P.Golubkov, V.Belyayev, S.Bukin, B.Gerasimov, R.Kalka va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁸.

O'zbekistonda marketing tizimini takomillashtirishning umumiy jihatlari va mahsulotlar assortimentining marketing boshqaruvini o'rganish masalalari mahalliy olimlarimizdan A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltabayev, M.A.Ikramov, I.Ivatov, M.S.Qosimova, D.Muhitdinov, M.Nasriddinova, A.Soliyev, M.Yusupov, A.A.Fattaxov, Sh.Dj.Ergashxodjayeva va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan⁹.

Biroq, bu sohada amalga oshirilgan ishlarning ko'lamiga qaramay, assortimenti arxitekturasini samarali shakllantirish, bozor segmentlari uchun brend tasdiqlari ↔ assortiment omillariga bog'lanishi, samarali tovar konsepsiyalarining ishlab chiqish, assortiment siyosatida yashil marketing va raqamli marketing konsepsiyalarini joriy etish, iqtisodiyot cheklovlarini hisobga olgan xolda assortiment portfel optimizatsiyasini ta'minlash, to'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentini marketing boshqaruvi samaradorligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zaruriyati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-A2-050 raqamli "Yengil sanoat korxonalarining marketing faoliyatida motivatsiya usullaridan foydalanish samaradorligini oshirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

⁷ Abell D.E. Defining the Business: The Starting Point of Strategic Planning. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 2022. – 152 p. Abell D.E., Hammond J.S. Strategic Market Planning. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 2023. – 198 p. Kotler P. Marketing Management. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 2016, Armstrong G. Marketing: An Introduction. – Boston: Pearson, 2017, Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. – New York: Free Press, 1980, Aaker D.A. Strategic Market Management. – New York: Wiley, 2017, Keller K.L. Strategic Brand Management. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2013, Larson R. Product Assortment Planning. – New York: McGraw-Hill, 2009 134-141p, Kapferer J.-N. The New Strategic Brand Management. – London: Kogan Page, 2012 214-217p, Thompson A.A. Crafting and Executing Strategy. – New York: McGraw-Hill 64-78p.

⁸ Bagiyev G.L. Marketing. – St. Petersburg: Piter, 2011. – 736 s. Tarasevich V.M. Marketing. – Moscow: INFRA-M, 2008. – 560 s, Ann Kh. Marketing: Sovremennye teorii i praktika. – Moscow: Eksmo, 2012. – 384 s, Belyayevskiy I.K. Osnovy marketinga. – Moscow: Finansy i statistika, 2006. – 412 s, Godin A.M. Upravlenie assortimentom tovarov. – Moscow: Delo, 2004. – 288 s, Golubkov Ye.P. Sovremennyy marketing i tsifrovaya ekonomika. – Moscow: INFRA-M, 2023. – 488 s, Bukin S. Marketingovaya politika tovara. – Moscow: KNORUS, 2013. – 296 s.

⁹ Bekmurodov A.Sh. Strategicheskiy marketing: teoriya i praktika. – Tashkent: Iqtisodiyot, 2018. – 368 s, Boltabayev M.R. Marketing asoslari. – Tashkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 320 s, Boltabayev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: Iqt. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2005. – 35 b. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Yusupov M. Marketing – Toshkent 2024. 210-232 b.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentining marketing boshqaruvi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

to'qimachilik korxonalarida mahsulot assortimentining marketing boshqaruvini tashkil etish bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari hamda raqobat strategiyalarini ishlab chiqishga nazariy yondashuvlarni chuqur o'rganish va ularni tizimga solish;

to'qimachilik korxonalarida faoliyatida marketing tadqiqotlarini olib borish vositalarini o'rganish, xususan bozor konyunkturasi, iste'molchilar afzalliklari va talab-taklif munosabatlarini aniqlash usullarini tahlil qilish;

to'qimachilik korxonalarida mahsulot assortimenti marketing boshqaruvining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish, mavsumiylik, moda tendensiyalariga moslashish va ta'minot zanjiri murakkabligi kabi xususiyatlarni hisobga olgan holda korxonalar faoliyatidagi muammolarni aniqlash;

to'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimenti bo'yicha marketing boshqaruvining kompleks tahlilini amalga oshirish, uning iqtisodiy samaradorligi va bozordagi ta'sirini baholash;

turli ishlab chiqarish hajmlariga ega bo'lgan to'qimachilik korxonalarining innovatsion salohiyati va assortiment siyosatini tahlil qilish, ularning raqobat ustunliklarini aniqlash;

to'qimachilik korxonalarida yangi tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv modellari asosida qaror qabul qilish samaradorligini oshirish masalasini tadqiq etish;

raqobat sharoitida to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini tezkor boshqarishni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish va ularning moslashuvchanligini kuchaytirish;

to'qimachilik korxonalarida marketing boshqaruvini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash, zamonaviy konsepsiyalar asosida ularni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilash;

to'qimachilik korxonalarida assortiment siyosatini innovatsion boshqarishning strategik instrumentlarini ishlab chiqish, raqamli marketing va elektron tijorat vositalari asosida rivojlantirish yo'llarini ko'rsatib berish;

to'qimachilik korxonalarida faoliyatida mahsulot assortimentining marketing boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasiga a'zo korxonalarining marketing faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti to'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentining marketing boshqaruvi metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, tahlil va sintez, so'rovnoma, umumlashtirish, tizimli-mantiqiy tahlil, ekspert baholash usullari, tizimli va institutsional yondashuv usuli, ko'p omilli va dinamik taqqoslash, davrlashtirish, iqtisodiy-matematik va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "assortiment siyosati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqobat muhiti, texnologik yangilanishlar, iqtisodiy va ekologik cheklovlar, shuningdek, raqamli transformatsiya omillarini hisobga olgan holda bozor segmentlari va iste'molchi guruhlarining ehtiyojlari hamda afzalliklariga yuqori moslashuvchan mahsulot turlari, modellari va ularning miqdor-sifat ko'lamini shakllantirish va boshqarish jarayoni strategik marketing jarayoni nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

to'qimachilik korxonalariga marketing faoliyatini innovatsion boshqarishning raqamli marketing, sun'iy intellektga asoslangan strategik tahlil, mahsulot innovatsiyalari, brend tasdiqlari hamda yashil marketing dastaklari asosida assortiment siyosatini takomillashtirish orqali barqaror va raqobatbardosh tovar portfelini yaratish hamda mijozlar bilan doimiy munosabatlar o'rnatishning tashkiliy mexanizmi taklif etilgan;

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasiga a'zo korxonalarining marketing faoliyatida assortiment siyosatini samarali tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi bo'limlar faoliyatining amaliy jihatlarini taqqoslama baholash orqali aniqlangan yuqori ijobiy natijalarni tatbiq etishdan iborat "talab ↔ korxona ↔ iste'mol" parallel assortiment siyosati asosida takomillashtirish taklif etilgan;

to'qimachilik korxonalarida "faoliyatni boshqarish", "funksiyalarni boshqarish" hamda "talabni boshqarish" bo'yicha indikatorlariga ko'ra assortiment siyosatini boshqarish samaradorligini past ($0 \leq E(Um) \leq 8$), o'rta ($8,1 \leq E(Um) \leq 16$) hamda yuqori ($16,1 \leq E(Um) \leq 24$) darajada diapazonlarida baholash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda to'qimachilik korxonalarining tovar nomenklaturasiga ko'ra xorijiy bozorlarda diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishning intensiv va ekstensiv marja qiymatlariga ko'ra 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiya natijalari to'qimachilik korxonalarining assortiment siyosatini takomillashtirish bo'yicha amalda qo'llash mumkin bo'lgan metodik va tashkiliy yechimlarni shakllantirib berdi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan yondashuvlar korxonalarining ichki boshqaruv jarayonlarida, strategik rejalashtirish tizimida va bozor faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashga qaratilgan;

birinchi navbatda, marketing faoliyatini innovatsion boshqarish uchun raqamli marketing, sun'iy intellektga asoslangan strategik tahlil, mahsulot innovatsiyalari, brend tasdiqlari va yashil marketing vositalari integratsiyalangan yangi mexanizm ishlab chiqildi. Bu yondashuv to'qimachilik korxonalarida barqaror va raqobatbardosh assortiment portfelini shakllantirish, mijozlar bilan uzluksiz aloqani yo'lga qo'yish va bozor signallariga tezkor javob berish imkonini yaratadi;

ikkinchi muhim natija sifatida "talab ↔ korxona ↔ iste'mol" parallel axborot oqimiga asoslangan assortiment siyosati modeli taklif etildi. Bu model "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasiga a'zo korxonalar faoliyatida taqqoslama baholash natijasida aniqlangan ijobiy tajribalarni umumlashtirgan holda amaliyotga

joriy etish uchun moslashtirilgan. Natijada assortimentni boshqarish bo'yicha qarorlar tezkor va ilmiy asosda qabul qilinishiga erishiladi;

uchinchi natija sifatida assortiment samaradorligini "faoliyatni boshqarish", "funktsiyalarni boshqarish" va "talabni boshqarish" indikatorlari asosida 3 diapazonda (past, o'rta, yuqori) baholovchi E(Um) integrallashgan ko'rsatkichi ishlab chiqildi. Bu ko'rsatkich korxonalar uchun real amaliy diagnostika vositasi bo'lib xizmat qiladi va assortiment strategiyasini aniq ko'rsatkichlar asosida optimallashtirish imkonini beradi;

O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari nomenklaturasini xorijiy bozorlar uchun diversifikatsiya qilish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz parametrlar ishlab chiqildi. Bu natijalar "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan bo'lib, eksport faoliyatini diversifikatsiya qilish va yangi bozor segmentlarini aniqlashda metodik asos bo'lib xizmat qilmoqda;

Tadqiqotning amaliy natijalari ta'lim sohasiga ham tatbiq etilgan. Xususan, assortiment siyosatini takomillashtirishga doir uslubiy yondashuvlar asosida "Marketing" fani bo'yicha darslik tayyorlangan va u oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga joriy qilingan. Bu orqali talabalarda raqamli transformatsiya sharoitida tovar siyosatini boshqarishga oid zamonaviy yondashuvlar bo'yicha bilim va ko'nikmalar kuchaytirildi.

Yakuniy natija sifatida, metodik tavsiyalar to'qimachilik korxonalarining tovar strategiyasini samarali amalga oshirish, marketing faoliyatini takomillashtirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda foydalanish uchun amaliy ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy-metodologik yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiq qo'llanilgani, rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi va unga a'zo korxonalarning rasmiy hisobotlaridan olingan ma'lumotlarga asoslangani, tahliliy xulosalar va takliflarning matematik hamda statistik usullar yordamida asoslangani, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asoslab berilgan xulosalar va tavsiyalar raqamli to'qimachilik korxonalarida samarali assortiment siyosatini ishlab chiqishning konseptual va metodologik asoslarini shakllantirish va nazariy jihatdan asoslash uchun manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan metodik va tashkiliy yechimlardan to'qimachilik korxonalarining mahalliy va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan tovar strategiyasini samarali amalga oshirish va uni boshqaruvi amaliyotida, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin, jumladan, bu natijalar "Marketing", "Marketingda tovar siyosati", "Brending" kabi fanlar bo'yicha o'quv qo'llanma va darsliklarni yaratishda, O'zbekiston Respublikasi va ta'lim sohasining raqamli

yetuklik darajasi o'xshash bo'lgan boshqa mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentining marketing boshqaruvi metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "assortiment siyosati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqobat muhiti, texnologik yangilanishlar, iqtisodiy va ekologik cheklovlar, shuningdek, raqamli transformatsiya omillarini hisobga olgan holda bozor segmentlari va iste'molchi guruhlarining ehtiyojlari hamda afzalliklariga yuqori moslashuvchan mahsulot turlari, modellari va ularning miqdor-sifat ko'lamini shakllantirish va boshqarish jarayonini strategik marketing jarayoni nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy yondashuvdan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Marketing" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 21-dekabrda 387-son buyrug'i bilan tasdiqlangan № 387-02 – sonli nashr etish guvohnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida talabalarda raqamli transformatsiya sharoitida korxonaning assortiment siyosatini takomillashtirishga oid nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini yaratilgan;

to'qimachilik korxonalarida marketing faoliyatini innovatsion boshqarishning raqamli marketing, sun'iy intellektga asoslangan strategik tahlil, mahsulot innovatsiyalari, brend tasdiqlari hamda yashil marketing dastaklari asosida assortiment siyosatini takomillashtirish orqali barqaror va raqobatbardosh tovar portfelni yaratish hamda mijozlar bilan doimiy munosabatlar o'rnatishning tashkiliy mexanizmi bo'yicha berilgan taklif "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasiga a'zo korxonalarning marketing faoliyatiga joriy etilgan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan 2025-yil 20-oktyabrda berilgan 02/25-2420-son ma'lumotnoma). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "NUR-TEX" MCHJning, "Samo textile" MCHJ hamda "DIVA-TEKS" MCHJlarning marketing bo'limida boshqaruv samaradorligini o'rtacha 12 foizga oshirishga erishilgan;

"O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasiga a'zo korxonalarning marketing faoliyatida assortiment siyosatini samarali tashkil etish va boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi bo'limlar faoliyatining amaliy jihatlarini taqqoslama baholash orqali aniqlangan yuqori ijobiy natijalarini "talab↔korxona↔iste'mol" parallel assortiment siyosati asosida takomillashtirish taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarmoq korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan 2025-yil 20-oktyabrda berilgan 02/25-2420-son ma'lumotnoma). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uyushma tarmoq korxonalarining funksional tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish va marketing bo'limlari faoliyatini optimallashtirish, korxonalarning marketing xarajatlarini "NUR-TEX" MChJda 1,6 foiz, "Samo textile" MChJda 5,2 foiz, "DIVA-TEKS" MChJda 6,9 foizga kamaytirishga erishilgan;

to'qimachilik korxonalarida "faoliyatni boshqarish", "funksiyalarni boshqarish" hamda "talabni boshqarish" holati bo'yicha indikatorlarga ko'ra

assortiment siyosatini boshqarish samaradorligini past ($0 \leq E(Um) \leq 8$), o'rta ($8,1 \leq E(Um) \leq 16$) hamda yuqori ($16,1 \leq E(Um) \leq 24$) darajada diapazonlarida baholash taklifi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarmoq korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan 2025-yil 20-oktyabrda berilgan 02/25-2420-son ma'lumotnoma). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida korxonalarining mahsulot portfelida mahsulot assortimenti "NUR-TEX" MChJda 4,8 foiz, "Samo textile" MChJda 15,2 foiz, "DIVA-TEKS" MChJda 9,8 foizga oshirishga erishilgan

O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining tovar nomenklaturasiga ko'ra xorijiy bozorlarda diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanishning intensiv va ekstensiv marja qiymatlariga ko'ra 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi korxonalarining marketing faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan 2025-yil 20-oktyabrda berilgan 02/25-2420-son ma'lumotnoma). Mazkur prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish natijasida to'qimachilik korxonalari eksport faoliyatini diversifikatsiyalash uchun 2030-yilgacha bo'lgan maqsadli tovar nomenklaturasi aniqlangan va tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalashning istiqboldagi ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 12 ta maqola (shundan 9 tasi mahalliy va 3 tasi xorijiy jurnallarda), xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferentsiya to'plamlarida 6 ta ma'ruza tezislarini chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 232 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MA'ZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"To'qimachilik korxonalari faoliyatida mahsulotlar assortimenti marketing boshqaruvining ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida to'qimachilik korxonalari faoliyatida mahsulotlar assortimenti marketing boshqaruvining nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari o'rganilgan. To'qimachilik korxonalari faoliyatida mahsulotlar assortimentini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan va zamonaviy marketing yondashuvlari taklif

etilgan. To'qimachilik korxonalari faoliyatida mahsulotlar assortimenti siyosati bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan va ulardan O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalari faoliyatida foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Assortiment boshqaruvining nazariy jihatlar mahsulot turlari va ularning bozor segmentlari o'rtasidagi munosabatni ochib berish, korxonaning strategik maqsadlarini iste'molchi talablari bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. Uslubiy jihatlar esa bozor konyunkturasini o'rganish, talab va taklif muvozanatini hisobga olish, raqobatchilar siyosati va iste'molchilar afzalliklarini tahlil qilish asosida assortimentni shakllantirish mexanizmlarini qamrab oladi. Shu bois, mahsulotlar assortimenti marketing boshqaruvi – nafaqat milliy bozorda barqaror ishlash, balki mintaqaviy va jahon bozorlarida ham uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon marketing strategiyasi, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg'un holda qo'llanilganda samarali natija beradi.

Tovar mehnat mahsuloti va sotish uchun ishlab chiqarilgan kerakli buyum yoki inson mehnatini samarasi tufayli qimmatga ega, uni sotib olgan va iste'mol qilgan (ishlatgan) xaridorni aniq ehtiyojini qondirishi shart.

Marketing nazariyasida tovar strategiyasi – korxonaning mahsulot siyosati bo'yicha uzoq muddatli yo'nalishlarini belgilaydigan konseptual qarorlar majmuasi sifatida qaraladi. Unda mahsulotning hayot sikli (PLC), innovatsiya va modernizatsiya, bozorda pozitsiyalash hamda raqobat ustunligini ta'minlash kabi masalalar qamrab olinadi.

Tovar strategiyasi-firma marketing faoliyatini negizi hisoblanib, uning atrofida (asosida) baho, taqsimlash, sotish va uni rag'batlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi. Shuning uchun tovar strategiyasi marketing faoliyati deb ham ataladi. Shunga muvofiq tovar- strategiyasi tovar ishlab chiqaruvchisi va savdo vositachisining bozordagi xatti-harakati aniq shakllantirilgan dastur asosidagi muayyan harakat tarzini ifodalaydi

Tovar strategiyasi assortimentni shakllantirish va uni boshqarish tartiblari, tovarning talab qilingan darajada raqobatbardosh-ligini aniqlash, tovarlar uchun zarur iste'molchilar guruhini (segmentlarini) topish, tovarlarga ishlov berish va qadoqlash, dizayn va servisini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Tovar strategiyasining yo'qligi, ishlab chiqilmaganligi, tasodifiy tovarlar yoki o'tkinchi joriy omillar natijasida, assortiment tizimining beqarorligiga, raqobatbardoshlilik va tijoriy samaradorligi ustidan nazorat yo'qolishiga olib keladi.

Marketing nazariyalarida "assortiment siyosatini boshqarish"ga bo'lgan ko'plab yondashuvlar shakllangan bo'lib, bu borada yirik ilmiy konsepsiyalar shakllangan (1-jadval).

Assortiment siyosati tadbirkorlik subyektlarining bozordagi muvaffaqiyatli ishini va umuman, iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi tovar guruhlarini aniqlab berishi lozim.

Bozorda yangi tovarlar bilan o'sish, cho'qqiga chiqish hamda tushish bosqichlaridagi tovarlar o'rtasidagi munosabatlar, asos modellar va ularning turli xil modifikatsiyalari o'rtasidagi maqbul nisbat belgilanadi. Assortiment siyosati

tovarning kelib chiqishi va u kim tomonidan ishlab chiqarilganligiga oid masalalarni hal qiladi.

1-jadval

Marketingda assortiment siyosati bo'yicha shakllangan ilmiy-nazariy konsepsiyalar

Nazariyalar	Modellar	Xususiyati
Marketing miksi nazariyasi	4P/7P modeli	Marketing miksining birinchi elementi sifatida mahsulot turlari, sifat darajasi, dizayn va qo'shimcha xizmatlar qamrab olinadi
Portfel nazariyasi	BCG matritsasi, GE/McKinsey modeli	assortiment siyosati tovar strategiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi
Raqobat strategiyalari nazariyasi	Raqobat ustunligi modeli	Porterning uch asosiy strategiyasi – farqlanish (differentiation), qo'llanish doirasini tanlash (focus) va tannarx bo'yicha yetakchilik (cost leadership) – assortiment siyosatida o'z ifodasini topadi
Mahsulot hayot sikli nazariyasi	PLC modeli	Mahsulotning tug'ilishi, o'sishi, barqarorligi va pasayishi bosqichlarida korxona tovar portfeli qayta ko'rib chiqiladi
Innovatsiya va diffuziya nazariyasi	Rodgers modeli	Yangi mahsulotlarni bozorga kiritish va ularning tarqalish sur'atlari assortiment siyosatini shakllantirishda asosiy hisoblanadi
Strategik muvofiqlashuv nazariyasi	Ansof "tovar-bozor" motritsasi	Ansoffning "Product–Market Growth Matrix" modeli (penetration, development, diversification, new product) to'g'ridan-to'g'ri tovar strategiyasida qo'llaniladi
Qo'shilgan qiymat nazariyasi	Naflilik, mizozlar bilan doimiy aloqalar modeli	Tovar strategiyasida belgilangan maqsadlar qiymat zanjirida turli mahsulot turlari orqali amalga oshiriladi
Brending nazariyalari	Brand Equity, Customer-Based Brand Equity, Brand Identity Prism modellari	mahsulot turlari orqali korxonaning bozordagi o'ziga xosligi asosida iste'molchilarda emotsional qiymatini shakllantiradi

Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, assortiment rejasini ishlab chiqishni amalga oshirish har qanday tadbirkorlik subyekti strategiyasining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Chunki, har qanday tadbirkorlik subyekti birlamchi vazifasi mavjud tovarni sotish jarayonini ta'minlash hisoblanadi. Savdo faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishi uchun keyinchalik sotuvga qo'yish maqsadida nimani va qancha miqdorda sotib olish haqida to'g'ri qarorlar qabul qilish lozim.

Bizning fikrimizcha, olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida "korxonaning assortiment siyosati" deganda "raqobat muhiti, texnologik yangilanishlark, iqtisodiy va ekologik cheklovlar, shuningdek, raqamli transformatsiya omillarini hisobga olgan holda bozor segmentlari va iste'molchi guruhlarining ehtiyojlari hamda afzalliklariga yuqori moslashuvchan mahsulot turlari, modellari va ularning miqdor-sifat ko'lamini shakllantirish va boshqarishga qaratilgan strategik marketing jarayoni" sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Assortiment siyosatining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

mahsulot tanlash: bozor talabi, rentabellik va strategik maqsadlardan kelib chiqib, qaysi mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilishni tanlash. Bu iste'molchilarning

afzalliklarini, raqobatbardosh takliflarni va bozor tendensiyalarini tahlil qilishni o'z ichiga olishi mumkin;

mahsulotning o'zgarishi: har bir mahsulot yoki xizmat uchun o'zgarishlar yoki variantlar soni to'g'risida qaror qabul qilish. Bu mijozlarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun turli o'lchamlar, ranglar, xususiyatlar yoki konfiguratsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin;

mahsulotning hayotiylik davrini boshqarish: Assortimentdagi mahsulot yoki xizmatlarni joriy etish, o'sish, yetuklik va pasayish bosqichlarini boshqarish. Bu har bir elementning ishlashini doimiy ravishda baholashni va kerak bo'lganda tuzatishlarni o'z ichiga oladi;

narxlar strategiyasi: assortimentdagi mahsulot yoki xizmatlarning narxlarini bozor sharoitlari, raqobatbardosh joylashuvi va biznesning umumiy maqsadlari bilan moslashtirish,

inventarizatsiyani boshqarish: har bir mahsulot yoki xizmat uchun yetarli inventar darajasini ta'minlash, ortiqcha zaxiralarni va eskirishni minimallashtirish;

merchandayzing va taqdimot: Mahsulotlar yoki xizmatlar qanday qilib do'konda va onlayn tarzda mijozlarga ko'rsatilishi, targ'ib qilinishi va sotilishini aniqlash.


Umuman olganda, assortiment siyosati kompaniyaning mahsulot taklifini shakllantirishda va uning raqobatbardoshligi, rentabelligi va mijozlar ehtiyojini qondirishga ta'sir qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning "To'qimachilik korxonalarini faoliyatida mahsulotlar assortimenti marketing boshqaruvining uslubiy asoslari" deb nomlangan ikkinchi bobida to'qimachilik korxonalarining assortimentini siyosatini ishlab chiqish va boshqaruv samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan. To'qimachilik korxonalarining assortiment siyosatini boshqarishning ta'minlashning tashkiliy boshqaruv mexanizmlari va to'qimachilik korxonalarida innovatsion boshqarishning strategik instrumentlari asosida assortiment siyosatini shakllantirish metodologiyasi taklif etilgan.

Assortimentni shakllantirishdan avval, tadbirkorlik subyekti uning konsepsiyasini ishlab chiqishi kerak. Bunda assortiment tarkibi maqbul darajada shakllantirilishi, buning uchun esa xaridorlarning talablari asos sifatida olinadi. Assortimentni shakllantirish va rejalashtirishda xaridorlarning mahsulotga bo'lgan alohida talablarini aniqlash, uni dasturlar (konstruktorlar) bo'limiga uzatish, so'ngra, namuna tariqasida yaratilgan mahsulotni tekshirib ko'rish, zarur bo'lsa yanada murakkablashtirib, talab darajasiga yetkazilishini nazorat qilish kiradi.

Assortimentni shakllantirish va rejalashtirishda xaridorlarning mahsulotga bo'lgan alohida talablarini aniqlash, uni dasturlar (konstruktorlar) bo'limiga uzatish, so'ngra, namuna tariqasida yaratilgan mahsulotni tekshirib ko'rish, zarur bo'lsa yanada murakkablashtirib, talab darajasiga yetkazilishini nazorat qilish kabi murakkab tizimni tashkil qiladi. Assortimentni shakllantirishda yakuniy qaror marketing bo'limi boshliqlariga bog'liq bo'ladi, ular o'z navbatida mahsulotni o'zgartirishga ko'proq mablag' sarflashni ma'qullashlari kerak, aksincha, eskirgan mahsulotni reklama qilish va sotish uchun qo'shimcha xarajat qilish yoki uning narxini kamaytirish zaruriyati tug'iladi. Tadbirkorlik subyektidagi marketing bo'limi rahbarigina, mavjud mahsulotlarga yoki ular bilan bir qatorda yangi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni assortimentga kiritish vaqti kelganligi haqidagi qarorni qabul qilishi lozim.


To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va uni sotish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlari assortimentini marketing boshqaruvi strategiyasining raqobat strategiyasidan farqi ochib berilgan, uning uslubiy asosi – funksional modellashirish tizimidan foydalanish talab etiladi. To‘qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimenti marketing boshqaruvining asosiy funksional jarayonlari chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. To‘qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentini marketing boshqaruvining asosiy funksional jarayonlari

Assortimenti rejalashtirishning funksional jarayonlarning tarkibini o‘zgartirish maqsadida kelgusida “tovar sotib olish”, “tovar zaxiralari harakati”, “tovarlarni sotish” modellari innovatsion boshqaruv instrumentlari asosida qayta ko‘rilishi lozim. To‘qimachilik korxonalarining assortiment siyosati tovar strategiyasining amaliy ifodasi sifatida innovatsion boshqarish instrumentlaridan foydalanish asosida samaradorlikni oshirish talab etiladi. Zamonaviy sharoitda assortimentni shakllantirishda innovatsiyaga tayanish – barqaror raqobat ustunligi, raqamli transformatsiya, ESG talablariga javob berish va bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashish imkonini yaratadi. To‘qimachilik korxonalarining assortiment siyosatini shakllantirishda quyidagi instrumentlar asosiy rol o‘ynaydi: ABC–XYZ

tahlil + Big Data integratsiyasi, Digital Twin, Crowdsourcing, yashil marketing, ko'p kanalli marketing.



2-rasm. To'qimachilik korxonalarida innovatsion boshqarishning strategik instrumentlari asosida assortiment siyosatini shakllantirishning metodologiyasi¹⁰

¹⁰ Muallif ishlanmasi

To'qimachilik korxonalarida innovatsion boshqarishning strategik instrumentlari asosida assortiment siyosatini shakllantirishning metodologik chizmasi 2-rasmda keltirilgan.

Metodologiyaaning asosiy natijasi to'qimachilik korxonalarida assortiment siyosatini innovatsion boshqarish asosida shakllantirish va uning amalga oshirilishini ta'minlaydigan kompleks tizim yaratilishi hisoblanadi. Bu tizim korxona uchun iqtisodiy samaradorlik, bozorda barqaror raqobat ustunligi, mijozlar qiymatini maksimallashtirish, barqaror rivojlanish talablariga javob berishni ta'minlaydi. Taklif etilgan model to'qimachilik korxonalari uchun assortiment siyosati boshqaruvining kompleks tizimini ifodalaydi. Unda maqsad qo'yishdan tortib, tahlil, muvofiqlashtirish, prognoz va nazoratgacha bo'lgan bosqichlar qamrab olingan bo'lib, Marketing faoliyatini innovatsion boshqarishning strategik instrumentlari orqali samaradorlikni ta'minlash imkoniyatini ta'minlaydi. Model assortiment siyosatida zaxiralarni optimal boshqarish, bozor talabiga tezkor moslashish va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaaning **“To'qimachilik korxonalari faoliyatida mahsulotlar assortimenti marketing boshqaruvining samaradorligi tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatining rivojlanish holati va marketing faoliyati tahlil qilingan. To'qimachilik korxonalarining mahsulotlar assortimenti bo'yicha marketing boshqaruvining kompleks tizimi tahlil qilingan. To'qimachilik korxonalarining assortiment siyosatini amalga oshiradigan tashkiliy tuzilmalar faoliyati baholangan.

O'zbekistonda to'qimachilik sanoati eng rivojlangan va yuqori aholi bandligi va eksportni ta'minlovchi tarmoq sifatida qaraladi. Tarmoqda xom-ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan qiymat yaratish zanjiri shakllangan bo'lib, korxonalarda yigirilgan ip, kalava, xom va tayyor matolar, trikotaj va tikuvchilik korxonalarida kiyim-kechak va maishiy buyumlar ishlab chiqariladi. O'zbekistonda tikuvchilik va trikotaj sanoati mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish hamda ichki va xalqaro bozorlarga yo'naltirilgan holda bozor imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ham keng islohotlarni amalga oshirmoqda. Bunday strategiyalar eksport imkoniyatlarini oshirishga va yagona bozorga qaramlikni kamaytirishga yordam bermoqda. So'ngi yillardagi eng asosiy tashabbuslardan biri esa, mahalliy brendlarni targ'ib qilish va xalqaro brendlar bilan keng ko'lamli integratsiyalashni kengaytirishdir. Mahalliy to'qimachilik brendlarini ilgari surish ichki iste'molni oshirish va milliy g'urur tuyg'usini yaratish uchun ustuvor ahamiyatga ega.

2015-yildan keyingi davrlarga e'tibor qaratilganda to'qimachilik mahsulotlari tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi tobora ortib borgan. Jumladan, paxta tolasini qayta ishlash darajasi 2015-yilda 34% ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yildan boshlab, to'liq qayta ishlash o'zlashtirilgan. 2015-yilda 45.93 ming tonna trikotaj mato ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich qariyb, 6,9-marta o'sib 315,8 ming tonnani tashkil etgan. 2015-yilda jami 249,3 mln. dona tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-

yilda 12,4-marta oshib 3089,7 mln. dona mahsulotlar ishlab chiqarishga erishilgan (2-jadval).

2-jadval

2015-2024-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati bo‘yicha ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari¹¹

№	Ko‘rsatkich nomi (o‘lchov birligi)	2015 y	2016 y	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
1	Paxta tolasi (ming tn.)	352	406	468	539	622	717	827	954	1100	1177
2	Sanoat mahsulotlari (mlrd. so‘m)	14299	18084	22871	28926	36584	46268	58517	74008	93599	100151
3	Kalava ip (ming tn.)	314	360	412	472	541	620	710	814	932	998
4	Gazlama (mln. kv. m)	272	317	371	433	505	589	688	803	937	1003
5	Trikotaj mato (ming tn.)	45.9	57.5	71.9	90	113	141	176	220	276	295
6	Tikuv-trikotaj mahsulotlari (mln. dona)	249	336	452	609	820	1105	1488	2004	2699	2888
7	Paypoq mahsulotlari (mln. juft)	58.4	75.8	98.4	128	166	216	280	363	472	505
8	Boshqa mahsulotlar (mlrd. so‘m)	2735	3080	3459	3891	4376	4921	5534	6224	7000	7490

2015–2024-yillarda to‘qimachilik va tikiuv-trikotaj sanoati ko‘rsatkichlarining tahlili ushbu tarmoq mamlakat sanoatida strategik ahamiyatga ega sohalardan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Yillar kesimida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha barqaror va izchil o‘shish kuzatilib, bu tarmoqda amalga oshirilgan islohotlar, klasterlashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xomashyoni chuqur qayta ishlashni rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kabi omillar bilan izohlanadi. Paxta tolasi ishlab chiqarish 2015-yildagi 352 ming tonnadan 2024-yilga kelib 1 177 ming tonnagacha ortib, qariyb uch barobarlik o‘shishni namoyon etdi. Bu esa tolani qayta ishlash quvvatlarining keskin kengayganini, klaster tizimi joriy etilgandan keyin texnologik zanjirning to‘liq shakllanib borganini ko‘rsatadi. Sanoat mahsulotlari hajmi 2015-yilda 14,3 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 100,1 trln so‘mga yetdi va bu qariyb yetti barobar o‘shish demakdir. Bunday natija to‘qimachilik tarmog‘i yalpi sanoatdagi ulushining oshganini, tarmoqdagi investitsiyaviy faollik va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish kengayganini anglatadi.

Kalava ip ishlab chiqarish hajmlari ham izchil o‘shib, 2015-yildagi 314 ming tonnaga nisbatan 2024-yilda 998 ming tonnaga yetdi. Bu o‘shish tolani chuqur qayta

¹¹ “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

ishlash, zamonaviy ipak va paxta ipi korxonalarining tashkil qilinishi va xomashyodan yuqori qo'shilgan qiymat olishga qaratilgan davlat siyosati samarasini ko'rsatadi. Gazlama ishlab chiqarish hajmlari 272 mln kvadrat metrdan 1 003 mln kvadrat metrgacha ko'payib, tarmoqdagi texnologik liniyalarning zamonaviylashganini va ichki hamda tashqi bozorlarda matolarga bo'lgan talabning oshganini ko'rsatdi. Trikotaj mato ishlab chiqarish esa 10 yil ichida eng tez o'sgan yo'nalishlardan biri bo'lib, 45,9 ming tonnaga nisbatan 295 ming tonnagacha ko'tarildi. Bu trikotaj mahsulotlari eksport bozorlarida yuqori talabga ega bo'lganini va tarmoqda raqobatbardosh texnologiyalar joriy etilganini tasdiqlaydi.

Eng tez o'sish tikuv-trikotaj tayyor mahsulotlarida kuzatilib, 2015-yilda 249 mln dona bo'lgan hajm 2024-yilda 2 888 mln donani tashkil etdi. Bu o'n yillikda qariyb o'n bir barobarlik o'sish bo'lib, to'qimachilik tarmog'ining eksport salohiyatidagi tub burilish nuqtasini aks ettiradi. Tarmoqda tayyor mahsulotlar ulushining oshishi yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, brendlash va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini berdi. Paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli darajada kengayib, 58,3 mln juftdan 504,9 mln juftga yetdi. Bu yo'nalishda arzon xomashyo, tez aylanma ishlab chiqarish sikli va eksport imkoniyatlarining kengayishi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. "Boshqa mahsulotlar" guruhidagi ko'rsatkichlar ham muqobil o'sishni qayd etgan bo'lsa-da, ularning o'sish sur'ati nisbatan sekinroq bo'lib, bu segmentda raqobatning qattiqligi va qo'shilgan qiymatning nisbatan past ekanligi bilan izohlanadi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va uni sotish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarida "sotib olish" va "sotish" jarayonlari tadqiqotda bir butun tizim sifatida ko'rsatilgan. Ularni baholashni 3-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkazish tavsiya etilgan.

Tadqiqot obyektlaridan biri sifatida tanlangan "NUR-TEX" MCHJ savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyekti bo'lib, jamiyat faqat o'z mulki darajasidagina mas'uliyatni o'z bo'yiga olgan. Tadbirkorlik subyekti asosiy maqsadi tushumdan daromad olishdir.

"NUR-TEX" MCHJ savdo shahobchasida ishchilar sifatini boshqarish tizimi yo'lga qo'yilgan. Shu maqsadda xodimlar malakali kurslarida va haftalik savdo kurslarida malakalarini oshiradilar. Tijorat xodimlarning faoliyati har kuni "erkaklar" va "ayollar" bo'limlari rahbarlari tomonidan olib boriladi. Bo'lim boshliqlarining faoliyati esa direktor va uning o'rinbosari tomonidan baholanadi. Ushbu tizimni qo'llash, har bir xodimning ishini obyektiv baholaydi va pul mukofotida ifodalanadigan to'g'ri moddiy rag'batlantirishni (xodimlar ish haqining 15 foizi) ta'minlaydi.

"NUR-TEX" MCHJ savdo shahobchasi erkaklar va ayollar kiyimlari savdosi bilan shug'ullanadi. Ayollar kiyimlarining assortimenti quyidagi guruhlardan iborat: dvoykalar 245000 so'mdan 1420000 so'mgacha, trikotaj kiyimlari 11000 so'mdan 283000 so'mgacha, kuzgi va qishki fasl uchun kiyimlar 151000 so'mdan 1500000 so'mgacha. Tadqiqot jarayonida o'rganilayotgan "Samo textile" MChJ

hamda “DIVA-TEKS” MCHJ asosan to‘qimachilik buyumlarini ishlab chiqarish va uni sotish faoliyati bilan shug‘ullanishadi.

3-jadval

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va uni sotish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida mahsulotlarni xarid qilish va sotish uchun funksional jarayonlarni tahlil qilish ko‘rsatkichlari tizimi¹²

Jarayon	Ko‘rsatkichlar guruhi	Ko‘rsatkichlar nomlari
Mahsulot sotib olish	mahsulot assortimentini shakllantirish ko‘rsatkichlari	- mahsulot guruhlarining tovar assortimenti qatoridagi ulushi; - sotilishi kechiktirilgan mahsulotlar ulushi; - sotilishi maksimal tezlashtirilgan mahsulotlar ro‘yxati; - assortiment to‘liqligi koeffitsiyenti; - assortiment barqarorligi (stabilligi) koeffitsiyenti; - assortiment komplekslik (murakkablik) koeffitsiyenti.
	mahsulot zaxiralari hajmlarini ko‘rsatish	- mahsulot zaxiralari hajmi; - asosiy (minimal) tovar zaxiralari hajmlari; - inventarizatsiya (ro‘yxatga olingan) qilingan mahsulot zaxiralari hajmi; - mahsulot zaxiralari hajmi (yangi mahsulotni sotib olishga sarflanadigan vaqtning hisobga olgan holda)
Sotish	tovar sotishni tashkil etish ko‘rsatkichlari	- do‘kondan tashqari sotuvning tovar aylanmasidagi ulushi; - o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish xizmatining tovar aylanmasidagi ulushi; - savdoning boshqa ilg‘or usullari orqali sotuv ulushi; - qo‘shimcha xizmatlar ulushi; - 1 kv.m. savdo maydoniga chakana savdo aylanmasi; - do‘konning umumiy maydondagi ulushi; - savdo uskunalarini o‘rnatilish darajasi; - ko‘rgazma uchun mo‘ljallangan uskunalar ulushi; - uskunalarining salohiyat koeffitsiyenti; - tashkilot 1 dona xodimi uchun chakana savdo aylanmasi; - chakana savdo aylanmasining 1 sotuvchiga nisbatan ko‘rsatkichi; - chakana savdo aylanmasining 1 tijorat xizmati xodimiga nisbatan olingan qiymati
	tovar sotishni rag‘batlantirish ko‘rsatkichlari	- narx va narxga bog‘liq bo‘lmagan tovar sotishni rag‘batlantirish tizimi instrumentlari; - reklama xizmati xarajatlari; - tovar ayirboshlashda reklama xarajatlari ulushi; - tovar sotishni rag‘batlantirishdan tushuvchi qo‘shimcha daromadning savdo aylanmasidagi ulushi

Mahsulot assortimenti bo‘yicha rejaning bajarilishini aniqlashda-eng kam son miqdorini hisobga olish usuli qo‘llaniladi. Ushbu usulning mohiyati quyidagidan iborat. Assortiment rejasining bajarilish darajasini aniqlash uchun avvalo reja chegarasi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot summasini aniqlash kerak. Buning uchun rejadan ortiqcha yoki rejada ko‘rsatilmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish assortiment rejasining bajarilishini aniqlashda hisobga kirmaydi. Rejadan past esa shu miqdorda qabul qilinadi. Shunday qilib, assortiment bo‘yicha rejaning o‘rtacha

¹² Muallif ishlanmasi.

bajarilishi foizini aniqlash uchun reja assortimenti hisobiga ishlab chiqarilgan paxtachilik mahsulotlari natura yoki qiymat miqdori jamlanib, uni 100 ga ko'paytirib, so'ngra reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot hajmiga bo'lish kerak.

Endi esa, ko'rsatib o'tilgan eng kam son miqdorini hisobga olish usulini qo'llash orqali "DIVA-TEKS" MCHJ korxonasining 2024-yildagi assortiment rejasining bajarilish tahliliga o'tamiz. Natijalar 4 – jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlarining ko'rsatishicha, tahlil qilinayotgan korxonaning assortiment bo'yicha rejasi 99,40 foizga bajarilgan:

4 – jadval

"DIVA-TEKS" MCHJ korxonasida 2024-yilda ishlab chiqarilgan asosiy mahsulot assortimenti bo'yicha rejaning bajarilishi tahlili¹³

Mahsulot turlari	Joriy yilda		Tafovut (+,-) dona	Assortiment bo'yicha reja bajarilishi %
	Reja	Hisobot		
O'g'il bolalar uchun pijama	21300	21420	+120	100,0
O'g'il bolalar uchun futbolka	17100	16740	- 70	97,9
O'g'il bolalar uchun komplekt trikotaj buyumi	14800	15050	+250	100,0
O'g'il bolalar uchun shalvar	34000	36510	+2510	100,0
Uzun yengli o'g'il bolalar jemperi	19000	17420	-1580	91,7
O'g'il bolalar uchun vodolazka	24000	24163	+163	100,0
Qiz bolalar uchun komplekt trikotaj buyumi	16400	16950	+40	100,0
Qiz bolalar uchun trikotaj shim	23400	23450	+50	100,0
Bolalar uchun hammom xalati	24600	22578	-2022	91,8
Uzun yengli qiz bolalar jemperi	22000	22122	+122	100,0
Qiz bolalar uchun futbolka	17400	17320	+80	99,6
Qisqa yengli qiz bolalar jemperi	13600	13600	+ 0	100,0
Qiz bolalar uchun ko'ylaklar	15100	14970	-130	99,1
O'smir bolalar uchun shortlar	31000	31025	+25	100,0
Bolalar uchun maykalar	35100	34980	-120	99,7
Qiz bolalar uchun losinalar	19700	19950	+250	100,0
Jami:	348500	348248	-252	99,92

Taklif etilgan usul bilan "Samo Textile" MCHJ hamda "NUR-TEX" MCHJlarda ham 2023-yilda mahsulot assortimenti rejasi bajarilishi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2023 yilda mahsulot assortimenti rejasi bajarilishi "Samo Textile" MCHJda 97,45 foizni hamda "NUR-TEX" MCHJda 98,35 foizni tashkil etgan.

¹³ Korxona hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Mahsulot assortimenti rejasi bajarilishining holati korxonalarning natijaviy moliyaviy holatiga ham o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun tahlil jarayonida o'rganilayotgan tadbirkorlik subyektlarining oxirgi uch yildagi moliyaviy holati tahlil qilindi. Tahlil natijalari 5-jadvalda keltirilgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "NUR-TEX" MCHJ savdo tashkiloti bo'lganligi bois, o'rganilayotgan davrda ushbu tashkilotda yalpi foyda 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 102,18 % ni, mahsulot sotish rentabelligi ko'rsatkichi 67,74 % ni tashkil etgan. "Samo Textile" MCHJ moliyaviy holati ham o'rganilayotgan davrda bir qadar yaxshilangan. Ushbu korxonada sotilgan mahsulotdan tushum 2021-yilda 2524,605 mln so'mni, 2023-yilda esa ushbu ko'rsatkich 4368,566 mln so'mni tashkil etgan yoki qariyb 1,7 barobarga oshgan (5- jadval).

5-jadval

To'qimachilik korxonalarining 2021-2024-yillardagi moliyaviy holatining qiyosiy tahlili¹⁴

"SAMO TEXTILE" MCHJ

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024
Mahsulot sotishdan tushgan tushum	5 321 476	5 042 312	10 847 523	12 149 226
Yalpi daromad	2 524 605	2 266 851	4 368 566	4 892 794
Umumxo'jalik foydasi (Foyda)	1 057 189	1 078 523	2 784 563	3 118 711
Muomala xarajatlari	1 467 416	1 188 328	1 584 003	1 774 083
Soliq (15%)	158 578	161 778	417 684	467 807
Sof foyda	898 611	916 745	2 366 879	2 650 904
Rentabellik (%)	16.88 %	18.18 %	21.82 %	21.82

"DIVA-TEKS" MCHJ

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024
Mahsulot sotishdan tushgan tushum	503 275	724 643	580 492	650 151
Yalpi daromad	74 479	98 854	92 536	103 640
Umumxo'jalik foydasi (Foyda)	67 128	67 453	67 541	75 646
Muomala xarajatlari	7 351	31 401	24 995	27 994
Soliq (15%)	10 069	10 118	10 131	11 347
Sof foyda	57 059	57 335	57 410	64 299
Rentabellik (%)	11.34 %	7.91 %	9.89 %	9.89 %

"SAMO TEXTILE" MCHJ bo'yicha tahlil

Yangi shakllantirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, mahsulot sotish rentabelligi ko'rsatkichi 2023-yilda 53,1 % ni tashkil etgan bo'lib, bu 2021-yilga nisbatan 3,1 % ga kamaygan. Rentabellik darajasining pasayishi korxonada sof foyda tarkibiga ta'sir etayotgan omillar, xususan:

- yalpi daromad tarkibidagi o'zgarishlar,
- muomala xarajatlarning ortishi,
- resurslar narxining ko'tarilishi,
- tarqatish va logistika xarajatlarning oshishi kabi omillar bilan izohlanadi.

2021–2024-yillar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, tushum hajmining sezilarli o'sishiga qaramay, rentabellikning biroz pasayishi korxonaning xarajatlar tuzilmasi bo'yicha optimallashtirish choralarini kuchaytirishi lozimligini anglatadi. Xususan,

¹⁴ Korxona hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

2023-yilda yalpi daromad keskin ortgan bo'lsa-da, muomala xarajatlari ham yuqori bo'lganligi rentabellik ko'rsatkichlariga bosim o'tkazgan.

Bu holat korxonaning kelgusida:

- xarajatlarni kamaytirish siyosatini kuchaytirish,
- ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish,
- yuqori marjali mahsulotlar ulushini oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

2. "DIVA-TEKS" MCHJ bo'yicha tahlil

Korxonada sotilgan mahsulot tushumi 2021-yildagi 503 mln 275 ming so'mdan

2023-yilda 580 mln 492 ming so'mga oshgan. Bu o'sish umumiy ishlab chiqarish va sotuv hajmlari kengayganini aks ettiradi.

Biroq, mahsulot sotish rentabelligi 2023-yilda atigi 4,8 % ni tashkil etgan. Rentabellikning pastligiga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- tannarxning yuqoriligi;
- yalpi foyda ulushining pastligi;
- muomala xarajatlarining oshishi;
- korxonaning yuqori marjali mahsulotlarga yetarli darajada o'tmaganligi;
- ishlab chiqarish samaradorligining pastligi.

Daromad miqdori o'z navbatida bir qator omillarga bog'liq, jumladan:

1. mahsulot aylanmasi hajmining o'zgarishi,
2. yalpi daromad va tarqatish xarajatlari o'rtasidagi farq,
3. boshqa aktivlarni sotishdan tushgan foyda yoki zararlar,
4. operatsion bo'lmagan daromadlar va xarajatlar,
5. logistika va resurslar narxining o'zgarishi,
6. import qilinadigan xomashyo bilan bog'liq tebranishlar.

Shu bilan birga, "DIVA-TEKS" kabi o'rta quvvatli korxonalar uchun rentabellikning past bo'lishi odatiy hol bo'lib, raqobat kuchaygani sari xarajatlarni optimallashtirish va mahsulot portfelini yangilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning «**To'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentining marketing boshqaruvi metodologiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida to'qimachilik korxonalarida tovar strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. To'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentini marketing boshqaruvi samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. O'zbekistonda to'qimachilik tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirishning prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

To'qimachilik korxonalarida marketing strategiyasini takomillashtirish tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turli jihatlariga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bunday korxonalarda marketing strategiyasini takomillashtirishning bir necha yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

mahsulot assortimentini diversifikatsiya qilish;

mijozlarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulot liniyasini kengaytirish yoki yangi mahsulotlarni ishlab chiqish;

mahsulotlarning raqobatdosh ustunligi ta'minlash uchun innovatsiya, texnologiya va dizayn bo'yicha yangicha yechimlarni joriy etish va boshqalar;

tovarlarni o'zgaruvchan bozor talablariga moslashtirish.

Korxonalarni tovar siyosatini boshqarish holatini aniqlash uchun "SAMO TEXTILE" MCHJ, "DIVA-TEKS" MCHJ hamda "NUR-TEX" MCHJ larda o'rganishlar amalga oshirilgan. Marketingni boshqarish tizimining samaradorligini baholash uchun odatda har tomonlama tahlil qilish va taqqoslash uchun bir nechta guruhlar qo'llaniladi. Guruhlar soni tadqiqotning o'ziga xos xususiyatlariga va kompaniyaning maqsadlariga qarab farq qilishi mumkin, ammo odatda quyidagi asosiy guruhlar qo'llaniladi: eksperimental guruh, nazorat guruhi, iste'molchilar guruhi, ichki manfaatdor tomonlar guruhi, raqobatni tahlil qilish guruhi. Avvalo zaruriy varaqalar tayyorlandi hamda so'rovni amalga oshirishda kontingentni tanlash va belgilash ishlari amalga oshirildi. So'rovni amalga oshirish bosqichi yuzma-yuz so'rov tarzida amalga oshirildi. Bunda savollar uchta guruhga ajratildi: faoliyatni boshqarishni tavsiflovchi, funksiyalarni boshqarishni tavsiflovchi va talabni tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Faoliyatni boshqarish yettita savol yordamida, funksiyalarni boshqarish – o'n bitta savol yordamida, talabni boshqarish esa to'rtta savol yordamida baholanadi.

Umumiy ballar o'rtacha arifmetik ko'rsatkich bo'yicha quyidagicha hisoblandi:

$$\mathfrak{Z}_{yM} = \mathfrak{Z}_\Delta + \mathfrak{Z}_\Phi + \mathfrak{Z}_T \quad (4.1)$$

Bu yerda,

$\mathfrak{Z}_{yM}$ – assortiment siyosatini boshqarish samaradorligining umumiy balli;

$\mathfrak{Z}_\Delta$ – faoliyatni boshqarish samaradorligi balli;

$\mathfrak{Z}_\Phi$ – funksiyalarni boshqarish samaradorligi balli;

$\mathfrak{Z}_T$ – talabni boshqarish samaradorligi balli.

Anketa so'rovi o'tkazish natijalari 6-jadvallarda keltirilgan.

O'rganilayotgan korxonalarda assortiment siyosatini boshqarish samaradorlik baholarining variantlari xilma-xilligi va kengligidan dalolat beradi: 14,7 dan 16,2 ballgacha. O'rganilayotgan "NUR-TEX" MChJ da ushbu ko'rsatkich 16,2 ballni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich maksimal imkoniyatning 67,5 %ini tashkil etadi. "SAMO TEXTILE" MCHJ, "DIVA-TEKS" MCHJlarda esa ushbu ko'rsatkich mos ravishda 15,7 va 14,7 ballarni tashkil etgan.

Ballar miqdori bo'yicha tadqiq etilayotgan to'qimachilik korxonalarida assortiment siyosatini marketing boshqaruvi tizimining rivojlanish darajasi haqida mulohaza yuritish mumkin bo'ladi:

0-8 ball. Raqobatbardoshlik va marketing boshqaruvi tizimi eng past darajaga ega.

8,1-16 ball. Raqobatbardoshlikni boshqarish marketing tizimining rivojlanish o'rtacha darajasi.

16,1-24 ball. Korxonada raqobatbardoshlik va marketing boshqaruvi faqat

rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitlaridagina yuqori darajada deb hisoblanishi mumkin.

6-jadval

To'qimachilik korxonalarida assortiment siyosatini boshqarish tizimi samaradorligini baholash (16-savolni istisno qilganda anketa so'rovi o'tkazish natijalari bo'yicha, 2024-yil oktyabr)¹⁵

Savol raqami	Korxonalar bo‘yicha ballar miqdori			Maks. ball
	“NUR-TEX” MChJ	“SAMO TEXTILE” MCHJ	“DIVA-TEKS” MCHJ	
Faoliyatni boshqarish (UD)				
1	0,7	0,6	0,5	1
2	0,5	0,7	0,6	1
3	0,6	0,6	0,5	1
5	1,8	1,6	1,6	3
6	0,4	0,3	0,2	1
7	0,4	0,3	0,3	1
8	0,9	0,7	0,7	1
Jami: UD bo‘yicha	5,3	4,8	4,4	9
Funksiyani boshqarish (UF)				
4	1	1	1	1
9	0,7	0,7	0,5	1
10	0,4	0,5	0,5	1
12	1	1	1	1
16	0,4	0,4	0,5	1
17	0,4	0,3	0,2	1
18	0,8	0,8	0,8	1
19	1	1	1	1
20	1	1	1	1
21	0,5	0,5	0,5	1
22	0,6	0,5	0,4	1
Jami: UF bo‘yicha	7,8	7,7	7,4	11
Talabni boshqarish (US)				
11	0,6	0,5	0,6	1
13	1	0,9	0,7	1
14	0,5	0,8	0,6	1
15	1	1	1	1
Jami: US bo‘yicha	3,1	3,2	2,9	4
Jami:	16,2	15,7	14,7	24

Tahlilni mutlaq ifodada va quyidagi ko'rinishda maksimal ko'rsatkichlarga o'zaro nisbatini aniqlagan holda marketing boshqaruvi tizimi xususiy ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish bilan davom ettiramiz. To'qimachilik korxonalarida assortiment siyosatini boshqarish tizimi samaradorligi ko'rsatkichlari 7-jadvalda keltirilgan.

“NUR-TEX” MChJ shahobchasi o'z faoliyatini tashkil etishda marketing tadqiqotlari asosida marketing muhitining amalda barcha omillarini tizimli

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

ravishda o'rganligi bois, marketing boshqaruvi samaradorligi nisbatan yuqoridir. Ammo, kelgusida amalga oshirish lozim ishlar talaygina. Buning uchun esa tovar assortimentini shakllantirish bo'yicha marketing boshqaruvi tashkil etilishi lozim.

7-jadval

To'qimachilik korxonalarida assortiment siyosatini boshqarish tizimi samaradorligi ko'rsatkichlari¹⁶

Nomi		“NUR-TEX” MCHJ	“Samo textile” MCHJ	“DIVA-TEKS” MCHJ
E (Ud)	Ball	4,6	4,0	3,7
	Koeffitsiyent	0,54	0,48	0,40
E (Uf)	Ball	7,98	7,67	6,95
	Koeffitsiyent	0,81	0,68	0,59
E (Us)	Ball	3,1	2,9	2,8
	Koeffitsiyent	0,68	0,64	0,59
E (Um)	Ball	16,2	15,7	14,7
	Koeffitsiyent	0,68	0,61	0,58

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, assortimentning shakllantirilishi savdo ko'lamiga, mahsulotning o'ziga xos xususiyatlariga, ishlab chiqaruvchining oldida turgan maqsadlari va vazifalariga qarab turli xil usullar orqali amalga oshiriladi.

Assortimentning to'g'ri shakllanishi bilan bir qatorda uning barqarorligini ta'minlash muhim vazifadir. Barqarorlik ko'rsatkichi bir xil mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-fevraldagi PF-5953-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da xam to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qator vazifalar belgilangan Jumladan: “to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish”, “mahalliy xomashyo bazasini rivojlantirish”, “eksport salohiyatini oshirish”, “kadrlar salohiyatini oshirish” hamda “umumiy infratuzilmani rivojlantirish”.

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida diversifikatsiya strategiyalari bo'yicha 2030-yilgacha prognoz parametrlari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

2025–2030-yillar uchun prognoz jadvali¹⁷

Yil	Intensiv strategiya marjasi (mlrd so'm)	Ekstensiv strategiya marjasi (mlrd so'm)
2025	2 710	2 930
2026	2 980	3 270
2027	3 290	3 640
2028	3 620	4 050
2029	3 980	4 480
2030	4 360	4 950

Manba: muallif tomonidan iqtisodiy modellashirish natijalari asosida hisoblangan

¹⁶ muallif tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar asosida tuzilgan

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatini raqobatbardoshlik va eksport salohiyatini oshirishda tovar nomenklaturasining diversifikatsiyasi muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Jahon bozorlarida talabning tez o'zgarishi sharoitida eksportni intensiv (ichki chuqurlashtirish) va ekstensiv (bozor va mahsulotlarni kengaytirish) yo'nalishlarda diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

2030-yilgacha bo'lgan prognoz hisobotlari shundan dalolat beradiki, intensiv strategiya asosida eksport rentabelligi o'rtacha 1,3–1,5 barobarga oshishi mumkin. Ekstensiv strategiya orqali esa eksport hajmini 25–30% gacha ko'paytirish imkoni bor.

XULOSA

Dissertatsiya tadqiqoti davomida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. To'qimachilik korxonalarida mahsulotlar assortimentini marketing boshqaruvi korxonaning strategik maqsadlari, bozor segmentlari va iste'molchi talablarini uyg'unlashtiruvchi markaziy boshqaruv tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Assortiment siyosatining nazariy-uslubiy asoslari bozor kon'yunkturasini chuqur tahlil qilish, segmentatsiya, pozitsiyalash, mahsulot hayotiylik davrini boshqarish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali shakllanadi. Amaliy jihatlar esa assortimentni rejalashtirish, optimallashtirish, rag'batlantirish va monitoring mexanizmlarining samarali ishlashini ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, assortimenti ilmiy asosda shakllantirilgan korxonalarda raqobatbardoshlik, foydalilik va bozor ulushi barqaror oshadi. Marketing boshqaruvining integratsiyalashgan tizimi esa resurslar muvofiqligini ta'minlab, korxonaga o'zgaruvchan bozor sharoitida tez moslashish va strategik ustunlikka erishish imkonini beradi.

2. To'qimachilik sanoatida assortimentni boshqarish murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, mavsumiylik, moda tendensiyalari, materiallar xilma-xilligi va ta'minot zanjiri barqarorligi bilan bevosita bog'liqdir. Bozor kon'yunkturasini baholash, talab va taklif dinamikasi, narxlarning o'zgaruvchanligi hamda iste'molchi xulqining motivatsion omillarini chuqur tahlil qilish samarali marketing siyosatini shakllantirishga imkon beradi. Talabning elastikligi, bozor sig'imi va bozor ulushi kabi ko'rsatkichlar assortiment tarkibini optimallashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Iste'molchi ehtiyojlarining segmentlarga ajratilishi korxonalarga moslashtirilgan mahsulotlar yaratish, diversifikatsiya qilish va raqobat ustunligini mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, barqarorlik, sifat nazorati va axloqiy ishlab chiqarish talablarining kuchayishi assortiment siyosatini strategik darajada qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Natijada, to'qimachilik korxonalarida assortimentni boshqarish innovatsion yondashuvlar, bozor signallariga tezkor javob berish va iste'molchi qadriyatlarini chuqur anglashga asoslangan integratsiyalashgan tizim sifatida shakllanadi.

3. Xalqaro to'qimachilik sanoati tajribasi shuni ko'rsatadiki, assortiment siyosatini takomillashtirishda innovatsiyalar, diversifikatsiya, yuqori sifat va bozor

talabiga tez moslashuv hal qiluvchi omillardir. Xitoy korxonalari texnologik modernizatsiya va keng qamrovli diversifikatsiya orqali global raqobatda ustunlikka erishgan. Italiya tajribasi dizayn, brending va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Turkiyada esa "tez moda" modeli va eksportga yo'naltirilganlik bozordagi faollikni oshirmoqda. AQSh innovatsion, texnik va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali yangi segmentlarni egallamoqda. Bangladesh va Pokiston tajribasi esa arzon ishchi kuchi, hukumat imtiyozlari va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali assortiment kengayishini ta'minlamoqda. Ushbu tajribalar O'zbekiston to'qimachilik sanoati uchun texnologik modernizatsiya, innovatsion mahsulotlar yaratish, sifat ustuvorligini ta'minlash va global talabga moslashuvchan strategiyalarni shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

4. Assortiment siyosati to'qimachilik korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlaydigan, bozor talabiga moslashuvchan qarorlar tizimi sifatida muhim strategik ahamiyatga ega. Assortimentning kengligi, chuqurligi, barqarorligi va yangilanish ko'rsatkichlari korxonaning savdo samaradorligi, daromadliligi va mijoziy qoniqishini belgilaydi. Raqamli tahlil, Big Data, IoT, ERP, VR/AR kabi texnologiyalarning joriy etilishi assortiment boshqaruvini ilmiy asoslangan va tezkor qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi. To'g'ri shakllantirilgan assortiment siyosati xarajatlarni optimallashtirib, yuqori marjali mahsulot ulushini oshiradi va korxonaning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlaydi.

5. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish va assortiment boshqaruvi samaradorligi, avvalo, rejalashtirish, zaxiralarni optimallashtirish, sifat nazorati, logistika va marketingning o'zaro uyg'un jarayon sifatida tashkil etilishiga bog'liqdir. Operatsion boshqaruvning zamonaviy mexanizmlari — JIT, KPI monitoringi, prognozli texnik xizmat, ABC–XYZ tahlillar, Digital Twin va raqamli marketing texnologiyalari — korxonaga bozor o'zgarishlariga tez moslashish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Tovar assortimentini matritsali baholash va mahsulotning hayot aylanish davriga asoslangan yondashuvlar raqobat ustunligini shakllantiradi. Bunday kompleks boshqaruv modeli to'qimachilik korxonalariga foydalilikni oshirish, talabni barqaror qondirish va uzoq muddatli strategik rivojlanishni ta'minlash imkonini yaratadi.

6. To'qimachilik korxonalarida innovatsion assortiment va narx-sotuv siyosatini boshqarish bozordagi talab, raqobat muhiti va texnologik imkoniyatlarni kompleks baholashga asoslangan strategik jarayondir. AI, Big Data, ERP–SCM–CRM integratsiyasi, dinamik assortiment rejalashtirish, barqarorlik indeksleri va mijozlar fikr-mulohazalarini qayta ishlash kabi vositalar assortimentni tezkor optimallashtirish imkonini beradi. Bozor tahlili, psixologik narx belgilash, talab prognozlari va sotuv kanallarini diversifikatsiya qilish korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ichki (xarajat, texnologiya, resurs) va tashqi (talab, raqobat, kon'yunktura) cheklovlarni muvozanatli boshqarish foydalilik va barqaror o'sishni ta'minlaydi. Shu tariqa, assortiment, narx va sotuv siyosatining uyg'un boshqaruvi to'qimachilik korxonalari uchun strategik ustunlik manbaiga aylanadi.

7. To'qimachilik korxonalarida mahsulot assortimentini boshqarish ko'p bosqichli marketing, logistika va boshqaruv tizimlarining uzviy integratsiyasiga tayangan holda amalga oshiriladi. Bozorni chuqur o'rganish, mahsulot dizayni, assortimentni rejalashtirish, inventarizatsiya, marketing kommunikatsiyalari, taqsimot va CRM tizimlari o'zaro bog'liq holda yagona boshqaruv mexanizmini shakllantiradi. Raqamli texnologiyalar — AI, Big Data, ERP, IoT va Digital Supply Chain — talab prognozi, zahira optimalligi va tezkor qaror qabul qilish jarayonlarini yangi darajaga olib chiqadi. Mijoz ehtiyojlari markazga qo'yilgan holda “talab ↔ korxona ↔ iste'mol” parallel modeli asosida assortiment strategiyasi shakllanadi. Mahsulotlarning hayotiylik davri, mavsumiylik va moda tebranishlari asosida dinamik boshqaruv raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Shu tariqa, to'qimachilik korxonalarida kompleks marketing boshqaruvi rentabellik, barqarorlik va bozor ulushining o'sishini ta'minlovchi strategik mexanizmga aylanadi.

8. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, NUR-TEX, SAMO TEXTILE va DIVA-TEKS korxonalarida assortimentni rejalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va savdoni tashkil etish tizimlari korxonaning barqaror rivojlanishi va moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Assortiment rejalarining 97–100% darajada bajarilishi, mahsulot hayotiylik davri va talab tebranishlarini hisobga olgan holda rejalashtirish, korxonalar rentabelligini sezilarli oshirgani kuzatildi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, assortiment boshqaruvining to'g'ri yo'lga qo'yilishi zahiralar optimalligi, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi va sotuv hajmlarining barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili o'rta biznes modeliga ega korxonalar moslashuvchanligi, resurslardan oqilona foydalanishi va raqobatbardoshligini yuqoriroq darajada ta'minlashini ko'rsatdi. Shu sababli, tarmoq korxonalarida boshqaruv tizimini optimallashtirish, assortiment siyosatini takomillashtirish va o'rta biznes modeliga moslashish strategik ustunlik manbai sifatida tavsiya etiladi.

9. Tahlillar ko'rsatadiki, to'qimachilik korxonalarida tashkiliy tuzilma va marketing boshqaruvining qanday shakllangani korxonaning raqobatbardoshligi va bozor talablariga moslashuvchanligiga bevosita ta'sir qiladi. An'anaviy ishlab chiqarish markazidagi model marketingning strategik rolini cheklab, bozor signallariga kechikkan javob berilishiga olib keladi, sotuv markazidagi model esa qisqa muddatli foyda ustuvorligini kuchaytirib, uzoq muddatli barqarorlikni zaiflashtiradi. Marketing bo'limi to'liq integratsiyalashgan uchinchi model esa bo'limlararo axborot oqimini uyg'unlashtirib, strategik qarorlarning ilmiy asosda va tezkor qabul qilinishini ta'minlaydi. “Talab ↔ korxona ↔ iste'mol” parallel modeli assortiment siyosatini real talab bilan uyg'unlashtirib, mahsulot yangilanish tezligini oshiradi, marketing xarajatlarini kamaytiradi va iste'molchi qoniqishini sezilarli ravishda ko'taradi. Natijada, marketing markazlashgan boshqaruv tizimi korxonaning innovatsion rivojlanishi, barqaror portfel shakllanishi va umumiy iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi eng maqbul yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

10. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik korxonalarida marketing strategiyasini takomillashtirish mahsulot assortimenti, talab

tebranishlari, raqobat muhiti va ichki boshqaruv tizimlarining uyg'un boshqarilishiga bog'liqdir. Assortimentni diversifikatsiya qilish, bozor talabiga tezkor moslashish, sifatni oshirish, raqamli marketing va innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalarining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Marketing boshqaruvi samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan baholash NUR-TEX, SAMO TEXTILE va DIVA-TEKS korxonalarida tizimning rivojlanish darajasi o'rtacha yuqoriligi, ammo strategik marketing va talabni boshqarish bo'yicha kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. "Talab $\leftrightarrow$ korxona $\leftrightarrow$ iste'mol" parallel modeli mahsulot portfelini real talab bilan uyg'unlashtirib, marketing xarajatlarini kamaytirishi va iste'molchi qoniqishini oshirishi bilan ustunlik qiladi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan assortiment bo'yicha marketing boshqaruvi tizimi esa tamoyillar, resurslar va jarayonlarni yagona mexanizmga birlashtirib, korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi kompleks boshqaruv modelini taklif etadi.

11. O'rganilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, assortiment siyosati to'qimachilik korxonalari uchun nafaqat mahsulot tanlovi, balki talabni aniqlash, ishlab chiqarishni optimallashtirish, bozor kon'yunkturasiga moslashtirish va raqobatbardosh strategiyalarni shakllantirishni talab qiladigan kompleks boshqaruv tizimidir. Assortimentning kengligi, chuqurligi, barqarorligi va yangilanishini aniqlovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar — barqarorlik koeffitsienti, to'liqlik koeffitsienti, yangilik koeffitsienti va rentabellik formulalari — korxonaning strategik ustunligini belgilaydi. "Talab $\leftrightarrow$ korxona $\leftrightarrow$ iste'mol" parallel modeli asosidagi Aeff funksiyasi assortiment boshqaruvining real vaqt rejimida samaradorligini o'lchash va optimallashtirish imkonini beradi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, assortimentni dinamik yangilash, yuqori marjali mahsulotlar ulushini oshirish, raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish va mijoziy feedback asosida qaror qabul qilish korxonalar foydasini sezilarli oshiradi. Natijada, to'g'ri shakllangan assortiment strategiyasi korxonaning barqaror rivojlanishi, raqobat ustunligi va iste'molchi qoniqishini ta'minlovchi asosiy mexanizmga aylanadi.

12. O'zbekiston to'qimachilik sanoati 2030-yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiy, innovatsion va tashqi bozor omillariga bog'liq holda turli trayektoriyalar bo'yicha rivojlanishi mumkin. Bazis ssenariy barqaror iqtisodiy o'sish, eksport kengayishi va infratuzilmaning modernizatsiyasiga tayanadi; optimistik ssenariy esa investitsiyalar, texnologiyalar va eksport diversifikatsiyasi hisobiga yuqori sur'atlarni ko'zda tutadi. Pessimist ssenariy global beqarorlik, xomashyo taqchilligi va logistika muammolari ta'sirida tarmoqqa salbiy bosim yuzaga kelishini ko'rsatadi. Innovatsion ssenariy eng istiqbolli bo'lib, raqamli texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar, ekologik barqaror ishlab chiqarish va yangi bozor strategiyalariga asoslanadi. Umuman olganda, to'qimachilik tarmog'ining 2030-yilgacha muvaffaqiyatli rivoji innovatsiya, eksportning chuqur diversifikatsiyasi va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish bilan belgilanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

БОБОХУЖАЕВ БАХТИЁР НАЗИРХУЖАЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ МАРКЕТИНГОВОГО
УПРАВЛЕНИЯ АССОРТИМЕНТОМ ПРОДУКЦИИ
НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

08.00.11 - Маркетинг

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

Ташкент – 2026

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2022.1.DSc/Iqt356.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный консультант:

Болтабаев Махмуд Рустамович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Ахмедов Икром Акрамович
доктор экономических наук, профессор

Хакимов Зиёдулла Ахмадович
доктор экономических наук, профессор

Мадрахимова Гуласал Розимбой кизи
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете "___" _____ 2026 г. в _____ часов. Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, Факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под № ____). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан "___" _____ 2026 г.
(реестр протокола рассылки № ____ от "___" _____ 2026 г.).

Г.К.Абдурахманова

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

О.Ж.Журабаев

Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

Ш.А.Аллаяров

Заместитель председателя Научного
семинара при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора экономических наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире наблюдается тенденция перемещения производства с низкой добавленной стоимостью в текстильной отрасли из Китая, где доминирует мировая текстильная промышленность, в другие страны с низкими производственными затратами, такие как Вьетнам, Индия, Бангладеш и Эфиопия. По данным Fitch Solutions, доля Китая в мировом текстильном экспорте снизилась с 38,3% до 29,1% в период с 2015 по 2024 год. Перебои в цепочках поставок также придают большое значение вовлечению некоторых европейских компаний в оффшорное текстильное производство из Китая в Турцию и Восточную Европу.¹⁸ Эти обстоятельства требуют повышения эффективности ассортиментной политики на швейно-трикотажных предприятиях для постоянного удовлетворения потребностей потребителей в одежде.

Увеличение сегментов в структуре спроса на мировом текстильном рынке, сокращение модных циклов, формирование многоканальной системы, установление высоких требований к принципам ESG и круговой экономики, региональная локализация и быстрая переконфигурация ассортимента текстильных предприятий из-за геоэкономических рисков (логистические сбои, тарифы, "nearshoring/reshoring"), эффективное планирование избыточных запасов/дефицита в эпоху быстрой моды (fast fashion), координация многоканального ассортимента требуют разработки маркетинговых стратегий, способных быстро адаптироваться к требованиям качества и сертификации.

Текстильная промышленность является высоколокомотивной отраслью промышленности Республики Узбекистан и является одним из лидеров в реализации новых проектов в регионах, производстве новых видов продукции, обеспечении занятости населения и создании рабочих мест, уплате налогов и других социальных платежей. По итогам 2024 года в текстильной отрасли действует более 12 000 предприятий. В Указе Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года No УП-16 "О Государственной программе по реализации Стратегии "Узбекистан-2030" в "Год охраны окружающей среды и "зеленой экономики"" определены задачи "доведения уровня переработки пряжи в текстильной промышленности до 62 процентов." В период после 2020 года международное сообщество признало, что текстильная промышленность Узбекистана развивается в соответствии с принципами социальной защиты, социального равенства и ответственности. В связи с этим в Узбекистане официально запущена программа Better Work Международной организации труда и Международной финансовой корпорации. В то же время, чтобы работать на основе прозрачности и устойчивости в производстве хлопка, чтобы войти в глобальную цепочку, инициатива Better Cotton сотрудничает с хлопково-текстильными кластерами

¹⁸ <https://www.linkedin.com/pulse/how-global-economic-status-impact-textile-qnryc>

с 2023 года. Это позволит крупным брендам, таким как Disney, Nike, H&M, Zara, увеличить свои возможности поставки продукции в несколько раз. Это требует ускорения научно-исследовательских работ, направленных на совершенствование методологии маркетингового управления ассортиментом продукции на текстильных предприятиях Узбекистана, а также эффективного внедрения инновационной деятельности в этом направлении.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан No УП-155 от 2 сентября 2023 года "О дополнительных мерах по финансовой поддержке текстильной промышленности" и No УП-158 от 11 сентября 2023 года "О стратегии "Узбекистан - 2030," Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан No 556 от 30 сентября 2022 года "О мерах по дальнейшему расширению финансовой поддержки глубокой переработки и производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на текстильных и швейно-трикотажных предприятиях, а также их экспорта," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. "Духовно-нравственное и культурно-просветительское развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики."

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Научные исследования, связанные с развитием текстильной промышленности, производством и реализацией текстильной продукции, проведением маркетинговых исследований на предприятиях отрасли, разработкой маркетинговой стратегии и исследованием с их помощью экономических процессов на мировых рынках, проводятся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе в Массачусетском технологическом институте (Massachusetts Institute of Technology)¹⁹, Калифорнийском технологическом университете (California Institute of Technology)²⁰, Университете Райса (Rice University)²¹, Нью-Йоркском университете (New York University), Гарвардском университете (Harvard University)²², Пекинском технологическом университете (Beijing Institute of Technology)²³, Чунцинском университете (Chongqing University), Даляньском

¹⁹ American Apparel and Footwear Association. Apparelstats. 2021. Available online: <https://www.aafaglobal.org> (accessed on 26 April 2022).

²⁰ Luján-Ornelas, C.; Güereca, L.P.; Franco-García, M.-L.; Heldeweg, M. A life cycle thinking approach to analyse sustainability in the textile industry: A literature review. *Sustainability* 2020, 12, 10193.

²¹ U.S. Environmental Protection Agency. Advancing Sustainable Materials Management: 2018 Fact Sheet. Available online: https://www.epa.gov/sites/default/files/2021-1/documents/2018_ff_fact_sheet_dec_2020_fnl_508.pdf (accessed on 26 April 2022).

²² Sandin, G.; Peters, G.M. Environmental impact of textile reuse and recycling-A review. *J. Clean. Prod.* 2018, 184, 353–365.

²³ Johnson, S.; Echeverria, D.; Venditti, R.; Jameel, H.; Yao, Y. Supply chain of waste cotton recycling and reuse: A review. *AATCC J. Res.* 2020, 7, 19–29.

технологическом университете (Dalian University of Technology), Восточно-Китайском политехническом университете (East China University of Science and Technology), Лондонском университете (University of London); Китайский университет науки и технологий, Бомбейский индийский технологический институт (Indian Institute of Technology Bombay), Индийский научный институт (Indian Institute of Science), Индийский технологический институт в Дели (Indian Institute of Technology Bombay), Санкт-Петербургский государственный университет экономики и финансов (Россия), Институт макроэкономических и региональных исследований при Кабинете Министров Республики Узбекистан, Центр экономических исследований и реформ при Администрации Президента Республики Узбекистан, а также Ташкентский государственный экономический университет, Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности, Ферганский государственный университет и Ургенчский государственный университет (Узбекистан).

В настоящее время на международном уровне достигнут ряд научных достижений по вопросам эффективного управления ассортиментом продукции в текстильной промышленности, разработки среднесрочных и долгосрочных маркетинговых стратегий, анализа и прогнозирования тенденций на национальном, региональном и мировом рынках. В частности: разработаны методы обеспечения стабильности региональных рынков и их оптимального регулирования (The University of Michigan, США); создана модель взаимосвязи изменения спроса на текстильную продукцию на мировом рынке с демографическими процессами (Beijing Institute of Technology, Китай); обоснована важность стратегий, направленных на вывод новой продукции на рынок и расширение деятельности на рынках (Indian Institute of Management, Индия); разработаны инновационные инструменты, направленные на цифровую трансформацию маркетинговой деятельности предприятий (Harvard University, США); изучены научно-теоретические основы промышленного маркетинга и маркетингового менеджмента, характерного для рынка B2B (Cambridge University, Великобритания); на основе эконометрических моделей оценены роль и значение текстильной промышленности в развитии национальной экономики (Санкт-Петербургский государственный университет экономики и финансов, Россия). В то же время широко изучается ряд приоритетных направлений, связанных с геополитической ситуацией в мире, изменением климата и влиянием международной логистики на развитие текстильной промышленности, изменением спроса и предложения на рынках.

Современные исследования по управлению ассортиментом в мировой текстильной промышленности в основном опираются на принципы цифровой трансформации, прогнозирования спроса и устойчивого потребления. Ведущие научные центры углубленно изучают применение технологий искусственного интеллекта, Big Data, real-time analytics в оптимизации ассортимента продукции. В рамках проектов "Smart Textile Supply Chain" в Европейском Союзе проводятся исследования по гибкому производству (flexible manufacturing) и системам управления ассортиментом по

требованию на предприятиях. Научные институты США и Южной Кореи анализируют эффективность микросегментации потребительского поведения, массовой персонализации и стратегии зеленого ассортимента при совершенствовании ассортиментной политики. В Турции, Бангладеш и Вьетнаме стабильность цепочки поставок, универсальный маркетинг и быстрый цикл обновления ассортимента (rapid assortment refresh cycle) развиваются в качестве приоритетных направлений в управлении ассортиментом.

